

**MILLIY MATBUOTNING ILK YILLARI****Ne'matova Farangiz****Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,  
sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,  
xalqaro jurnalistika yo'nalishi 1-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** maqolada milliy jurnalistikaning paydo bo'lishi va shakllanishi, mustaqillik davrida o'zbek jurnalistikasi, jurnalistik faoliyat va uning ko'rinishlari, o'zbek jurnalistikasi tasnifi va tarkibi, jurnalistik faoliyatni tashkil qilish haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy jurnalistika, jurnalistik faoliyat, ijtimoiy axborot, internet faoliyat.

Kishilik jamiyatida matbuotning tutgan o'rni beqiyosdir. Insoniyat tarixining hamma bosqichlaridagi kabi hozirgi davrda ham matbuot, ommaviy axborot vositalari jamiyat taraqqiyoti va insoniyat taqdirida muhim rol o'ynamoqda. Hozirgi zamon hayotini - buyuk kashfiyotlar asri, fan va texnika g'oyat rivojlangan, insoniyat tafakkurining bemsiz yutuqlariga erishilayotgan XXI asrni matbuotsiz, gazeta va jumallarsiz, radio va televideniyesiz, axborot agentliklari va internet tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson nonsiz, nozu - ne'matlarsiz yashay olmaganidek, ma'naviy oziq boim ish matbuot, ommaviy axborot vositalari ham hozirgi zamon odamlarining doimiy yoidoshi, yaqin hamkoriga aylangan. Butun yer qurrasini ko'z ilg'amas qon tomirlari singari qamrab olgan ommaviy axborot vositalari kishilarga dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalar to'g'risida har kuni, har soat, har soniyada xabar berib turadi, ularning ongiga ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda ilg'or, xalqparvar g'oyalarga asoslanuvchi, insoniyatga ezgulik va taraqqiyot g'oyalarini yetkazuvchi demokratik matbuot asosiy o'rin tutadi.

Dastlab har qanday odamsimon mavjudotlarda axborotga, keyinchalik ommaviy axborotga ehtiyoj yuz ming yillar oldin paydo bo'lganiga hech kim shubha qilmaydi, chunki faqat shunday axborotdan foydalanibgina u o'z jonini asrab, yashashni davom ettirishi mumkin edi. Talab bor joyda uni qondirishga harakatlar bo'lishi ham tabiiy. Demak, aynan o'sha vaqtlarda, ehtiyoj natijasida, dastlabki, ibtidoiy ommaviy kommunikatsiyalar, ya'ni protokommunikatsiyalar paydo bo'lgan.

Ayrim mutaxassislarning aytishlaricha, ommaviy kommunikatsiya vositalari tarixini



o'rganishni bevosita bosma kitob davridan boshlash to'g'ri bo'ladi. Bunday fikrga qo'shilish qiyin. Chunki ommaviy kommunikatsiya vositalari OKVni o'rganish bevosita ushbu vositalardan ko'ra insonning ijtimoiy tabiati va psixologiyasiga ko'proq bog'liqdir. OKV texnikasi - jonsiz, o'lik vosita. Unga hayot va ma'no bag'ishlovchi esa insonlardir. Misol keltiraylik: matbuot paydo bo'lganiga 550 yil to'lgan bo'lsa, televidenie bor-yo'g'i 70 yil oldin kashf etildi. Ya'ni, rasmiy xronologik yondashuvga ko'ra, matbuot televideniedan 8 marta ko'proq umr ko'rgan, demak, tarixiy, kasbiy tajribasi va xizmatlari jihatidan OKV orasida, so'zsiz, birinchi o'rinni egallashi kerak. Aslida esa, bunday emas. Doimiy teleko'rsatuvlar efirga chiqqandan keyin yigirma yil o'tar-o'tmas televidenie matbuotni orqada qoldirdi va hanuzgacha ham OKV orasida hukmronlik qilib kelmoqda.

Jurnalistika tarixiga oid asarlarda jurnalistikaning dastlabki kurtaklari eramizdan oldingi davrlarda Xitoyda loydan yasalgan va keyinchalik Rimda gipsdan yasalgan taxtachalar, Yaponiyada sopolga o'yilib xumdonda pishirilgan maxsus maiumotnomalardir deb ko'rsatiladi. Bu nashrlar o'z-o'zidan ommalashmadi, chunki ulaming adadini ko'paytirish va tarqatish o'ta noqulay boigan. Keyinchalik qog'oz ixtiro qilinishi bilan bunday nashrlar o'rnini qo'lyozma varaqalar egallay boshladi.

O'zbek jurnalistikasining paydo bo'lishi va shakllanishida qo'lyozma varaqalar ma'lum o'rin egallab kelgan. Chunonchi, hali o'zbek jurnalistikasi tub ma'noda shakllanmagan bir paytda uning funksiyasini bajargan o'zbek demokratik adabiyotining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqalar o'z zamonining ijtimoiy illatlarini fosh etgan hajviy she'rlarini qo'lyozma holida tarqatganlar, ko'pchilik ko'radigan joylarga osib, yopishtirib qo'yganlar. (Masalan, Zavqiyning mashhur "Ahli rasta hajvi" she'ri). Bundan ko'rinib turibdiki, qo'lyozma varaqalar ham o'z davrida muhim axboriy va ijtimoiy-siyosiy funksiyalami bajargan. Yuqoridagi misollar esa matbuotning dastlabki ko'rinishi qo'lyozma varaqalar shaklida paydo bo'lgan, deyish uchun asos bo'la oladi. Demak, qo'lyozma varaqalar hali tub ma'nodagi matbuot paydo bo'lgunga qadar uning dastlabki turi, ko'rinishi sifatida xizmat qilgan.

Shunday qilib, gazeta matbuotning asosiy turiga aylandi, hamda ijtimoiy axborot yetkazishning muhim vositasi sifatida jamiyat hayotidan o'z munosib o'rnini oldi. Turgan





gapki, jamiyatdagi hukmron sinflar va tabaqalar gazetadan o‘z maqsad va manfaatlari yo‘lida foydalana boshladilar. O‘zbek matbuoti tarixi jadidchilik harakati va jadid ziyolilari nomi bilan tabiiy ravishda bog‘lanadi. Jadidchilik – ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy harakatdir. Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasini ibratxonaga aylantirish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matubot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so‘zning kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo‘ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog‘i va dunyodan boxabar bo‘lmog‘i uchun zaruratga aylandi. Boshlab gazetalar oyda bir bora bazo‘r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma’lumotlar ma’naviy ehtiyoj tusini oldi.

Darhaqiqat, millat ma’naviyatini isloh etish, odamlarni ma’rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o‘rgatish va mudroq tafakkurni uyg‘otishning eng asosiy omili sifatida jadidlar matbuotning qadrini baland ko‘tardi. Ular nazdida matbuot – fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo‘lida xizmatchi, odamlar ong-u shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko‘zgu bo‘lmog‘i lozim edi. «Ulfat» ko‘ngillar birligidan so‘z ochishi, «sado»lar ma’rifat va ma’naviyat, odobiyot va adabiyotning ovozi bo‘lishi kerak edi. Gazeta va jurnallar nomi shu ezgu niyatlarga moslab tanlandi.

Turkistonlik ziyolilar o‘zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga – Baxchasaroyga ko‘z tikishdi. Ismoilbek Gasprinskiyning «Tilda, fikrda, ishda birlik» degan g‘oyalariga havaslanib qarashdi. Jadidlar shu allomaning “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini o‘qib, uning muxlisi va muhibiga aylanishdi.

Muqimiyning 1891-yilda “Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalarida bir necha she’rlari, 1903 va 1907-yillarda bir qator ishqiy va hajviy ruhdagi asarlari e’lon qilingan. Shunday qilib, Muqimiyning jurnalistik ijodi o‘zbek milliy publitsistikasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Zokirjon Furqatni ham haqli ravishda o‘zbek publitsistikasining asoschilaridan biri deyish adolatdan bo‘ladi.

O‘zbekistonda birinchi radio eshittirish 1927-yil 11-fevralda efirga chiqarildi. Shunday



qilib, radio ommaviy axborot vositalari tizimini boshlab berdi va jurnalistika tasnifida ham insoniyatning madaniy-ma'naviy hayotidan mustahkam o'rin oldi. Radio ijtimoiy axborot tarqatishning eng qulay, tezkor va o'ziga xos vositasi sifatida insoniyatga katta xizmat qilib kelmoqda. Matbuot doimo jamiyat bilan birgalikda taraqqiy etadi, takomillashadi. XX asming o'rtalariga kelib, jurnalistika tasnifida katta bir yangilik, sifat o'zgarishi yuz berdi - televideniye ixtiro qilindi. Bu buyuk kashfiyotning dunyoga kelishida turli mamlakatlardagi ko'pgina olimlar, mutaxassislar bilan bir qatorda toshkentlik tadqiqotchilar B.Grabovskiy va V.Belyanskiylar ham o'z hissalarini qo'shdilar.

Televideniye - uzoqdan ko'rish degan ma'noni bildiradi. Televideniye radiodan farqli ravishda faqat ovoznigina emas - bir vaqtning o'zida tasvirni ham ko'paytirib, uzoq masofa va keng hududga yoyish imkoniyatini beradi. Televideniye paydo bo'lishi bilan ijtimoiy hayotni gazeta va jumaldagi kabi so'z orqali tasvirlash, radiodagi kabi ovoz orqali ifodalash emas, balki bevosita ko'rsatish imkoniyati tug'ildi.

Milliy ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jahon andozalari talablari darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijodkorlar mehnatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilib kelinmoqda. "Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o'zi hayotimizga keskin sur'atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo'lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lida g'oyat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo'yimoqda. Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun ma'suliyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi", - degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida. Davlat rahbarining biz jurnalistlarga yuksak ishonchi, har tomonlama qo'llab quvvatlanishi, sharaflil kasb egalari oldiga yuksak va sharaflil vazifalarni yuklaydi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Abduazimova N. A. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Davlat va jamiyat



qurilishi akademiyasi, 2017.

2. Do'stmuhammad X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: Monografiya. T.: Yangi asr avlodi, 2017.

3. Jabborov S.M. Ommaviy axborot vositalari qonunchiligi: Ma'ruzalar matni. T.: O'zMU: 2016.

4. M o'minov FA . Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T.: Universitet, 2014.

